



Problems encountered in developing reading comprehension skills in students learning Japanese (as a second language)

Aziza KHALILOVA¹

University of World Economy and Diplomacy

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2024
Received in revised form
15 April 2024
Accepted 25 April 2023
Available online
25 May 2024

Keywords:

educational standard of the
Japanese language,
working with text,
competence,
strategy,
reading mechanism.

ABSTRACT

This article is devoted to the problems that students face when learning Japanese, especially when developing skills in working with text. The article describes the process of working with text, as well as strategies and common mistakes that arise in this process. The relevance of the article is due to the need to properly organize this process, eliminate emerging problems, which ultimately contributes to the development of students' reading skills.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss4/S-pp14-20>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Yapon tili o'rganuvchi talabalarning matnni o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda uchraydigan muammolar (ikkinchi til sifatida)

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

yapon tili ta'lim standarti,
matn bilan ishlash,
kompetensiya,
strategiya,
o'qish mexanizmi.

Mazkur maqola yapon tili o'rganayotgan talabalarning matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishda uchraydigan muammolarga qaratilgan bo'lib, unda matn bilan ishlash jarayoni, strategiyasi va matn bilan ishlashda uchraydigan xatoliklar haqida so'z boradi. Maqolaning dolzarbligi matn bilan ishlash jarayonini to'g'ri tashkil etish va muammolarni bartaraf etish natijasida talabalarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

¹ Senior Lecturer, (PhD), University of World Economy and Diplomacy.

Проблемы, возникающие при развитии навыков понимания прочитанного у студентов, изучающих японский (как второй язык)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

образовательный стандарт японского языка, работа с текстом, компетентность, стратегия, механизм чтения.


Данная статья посвящена проблемам, с которыми сталкиваются студенты при изучении японского языка, особенно при формировании навыков работы с текстом. В статье описывается процесс работы с текстом, а также стратегии и типичные ошибки, возникающие в этом процессе. Актуальность статьи обусловлена необходимостью правильной организации этого процесса, устранения возникающих проблем, что в конечном итоге способствует развитию читательских навыков обучающихся.

Zamonaviy metodikada til ta'limi maqsadi o'quvchi shaxsini rivojlantirishga xizmat qiladigan kompetensiyalar, xususan, kommunikativ, lisoniy, madaniy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Talaba aynan ushbu kompetensiyalarga ega bo'lgandagina nafaqat, muloqotda, balki o'z sohasi doirasida ham tilni mukammal egallagan, har tomonlama savodli mutaxassis bo'lib yetishadi. Shunday ekan, ta'lim jarayonida tillarni o'qitish dasturlarini bakalavrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yilgan umumiy malaka talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqish va u yoki bu kompetensiyani shakllantirishga mo'ljallangan darslarda metodlardan faol foydalanish, ya'ni soha tilini chuqurroq egallashlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Chet tillarini o'qitish metodikasida matn tilni o'rganishning muhim birligi hisoblanadi. Matn orqali til o'rganuvchi o'zga madaniyatni qabul qilishga yordam beradigan bilimlarni oladi, o'rganilayotgan til mamlakatining geografik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tuzilishi haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Naqat leksik kompetensiya, balki tilni shakllantirishning samarali vositasi sifatida o'qituvchi rahbarligida matnlar ustida intensiv va sinchkovlik bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Hozirgi paytda o'qish faqatgina ma'lumot olish manbai deb qaralmaydi. U orqali fonetik, grammatik, leksik materiallar, grafika, orfografiyaning qo'llanilishi o'zlashtiriladi, yangi leksika bilan doimo boyitib boriladi.

Yapon tili ta'lim standarti (JFS) til bilish qobiliyatini 6 ta daraja ajratadi, yapon tilini o'qitish va qobiliyatlarni baholash maqsadlarini uchun mo'ljallangan ta'lim standarti hisoblanadi. JFS yordamida biz o'qish maqsadlarini belgilashimiz, mavzu, vazifa, kerakli til ko'nikmalari va strategiyalari haqida aniq taassurotga ega bo'lishimiz mumkin.

Figure 1-2 JF Standard Tree



Xorijiy tillarnini qo'llashda umumiy kompetensiyalarni quyidagicha tasniflash va tasvirlash mumkin.

1. Insonning xayot tajribasi, ma'lumoti yoki boshqa manbalardan kelib chiqqan holda dunyo bilan bog'liq xaqidagi bilimlari.

2. Ma'lum bir til jamiyatiga tegishli bo'lgan quyidagi sohalarni qamrab oluvchi ijtimoiy-madaniy bilimlar: kundalik hayoti, turmush tarzi, insonlararo munosabatlar, qadriyatlar va dunyo qarashlar, imo ishoralar tili va boshqalar.

3. Madaniyatlararo bilimlar – bunda til o'rganuvchi o'zining va o'rganayotgan til madaniyatining o'xshash va farqli jihatlarini ajratishi tushuniladi. Madaniyatlararo bilimlari asnosida talaba o'zida boshqa madaniyat vakillari bilan aloqalar o'rnatadi.

Til o'rganuvchining kommunikativ faoliyati uning nafaqat egallagan bilimlariga balkim shaxsiyatini aniqlab beruvchi shaxsiy xususiyatlariga ham bog'liq. Uning dunyoqarashi (masalan, yangi madaniyat va uning vakillariga nisbatan ochiqligi), o'z harakatlarining motivatsiyalari (qarorlar qabul qilishda intuisiyasi, qarorlarining nechog'lik o'ylanganligi, muloqotga bo'lgan ishtiyoqi) turli xil qadriyatlarga bo'gan munosabati (axloqiy va madaniy), anglash qobiliyati (konvergentlilik, divergentlilik, mulohaza yuritish), xarakter (optimizm- pessimizm, muloqotga moyillik va aksincha bosiqlik) kabi xususiyatlari bilan belgilanadi.

Anglash qobiliyati umumiy kompetensiyalarning tarkibiy qismi hisoblanadi. O'rganish qobiliyati deganda yangi turdagi faoliyatda ishtirok etish va yangi axborotni mavjud bilimlar tizimiga singdira olish nazarda tutiladi. O'rganish qobiliyati ko'p o'lchamli hisoblanib, o'z ichiga o'rganishni bilishni (o'rganish mobaynida paydo bo'ladigan imkoniyatdan to'g'ri foydalanish, o'z o'quv jarayonini tashkil etish), evristik qobiliyatni (yangilikni anglash, yangi axborot vositalaridan foydalanish va h) o'zida aks etadi.

Biz matn kompetensiyasini matnlarni idrok etish, talqin qilish va yaratish uchun zarur va yetarli bo'lgan, shaxsning ongli nutqiy o'zaro ta'sirga tayyorligi va qobiliyatini ta'minlovchi til va nutqiy bilimlar, ko'nikmalar, matn faoliyatining ijobiy tajribasi majmui sifatida belgilaymiz.

E.N. Solovova o'qishni nutq va til ko'nikmalarini rivojlantirish va nazorat qilish vositasi sifatida ko'rib chiqishni taklif qildi, masalan:

- o'qishdan foydalanish til materialini o'zlashtirish jarayonini optimallashtirish imkonini beradi;

- so'z boyligi va grammatikasini nazorat qilish uchun muloqotga yo'naltirilgan vazifalar;

- tinglash, yozish va gapirish ko'nikmalari o'qish ko'nikmalarini talab qiladi va yozma matn va ko'rsatmalar asosida quriladi;


- barcha til va nutq ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun mashqlar ham matn va mashqlar va topshiriqlar uchun yozma ko'rsatmalarga asoslanadi.

Chet tilidagi matnni tushunish muammosining bir jihati nafaqat muallifning konseptual tizimi asosida, balki madaniyatning milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi tizim asosida lingvistik iboralarning ma'nosini aniqlashdir. Til universitet talabalari uchun ayniqsa samarali bo'lib, ularning kasbiy kompetentligining o'ziga xosligi o'rganilayotgan til madaniyati bilan bevosita bog'liq, leksik va sintaktik birliklarning xususiyatlari, millat mentaliteti va nutq madaniyatini idrok etish bilan bog'lash mumkin.

O'qish ko'nikmasini shakllantirish orqali talabalarda o'qishning barcha asosiy turlari bo'yicha bir qator ko'nikmalarni rivojlantirish mumkin:

- yuzaga kelishi mumkin bo'lgan voqea va faktlarni oldindan bilish va bashorat qilish;
- tushirib qoldirilgan fragmentlarni qo'shish orqali matnning yaxlitligini tiklash;
- lingvistik va kontekstual taxminlar asosida alohida so'zlarning ma'nosini taxmin qilish;
- asosiy faktlarni ajratib ko'rsatish;
- asosiy axborotni ikkilamchi axborotdan ajratish;
- asosiy faktlarning mantiqiy ketma-ketligini o'rnatish;
- faktlar orasidagi sabab-natija munosabatlarini ochib berish;
- muallifning argumentini tushunish; o'qigan narsangizga o'z munosabatingizni bildiring;
- izohlar, lingvistik ma'lumotnomalar va lug'atlardan foydalanish;
- fikr va his-tuyg'ularini nutqiy klişelardan foydalanib, kerakli lingvistik vositalardan foydalana bilish.

1-jadval



Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'qish jarayonini maqsaddan kelib chiqib ikki turga ajratishimiz mumkin. Birinchisi, o'qish tezligi bo'yicha. Tez o'qish – bu faqat muhim narsani tushunishga harakat qiladigan o'qish usuli. Sekin o'qish – iloji boricha batafsil va sinchkovlik bilan o'qish deb tuhsunishimiz mumkin. Ikkinchisi, qism yoki kalit so'zlarga tayanib o'qish, yoki aksincha matning mazmunini umumiy tushunishga qaratilgan o'qish.

“O'qish” mexanizmi – bu matnni o'qish va tushunish mexanizmi bolib, u o'qish jarayoni, o'qish strategiyasi kabi tarkibiy qismlarga bo'linadi. Mutolaa paytida o'quvchi ongida sodir bo'layotgan jarayon – o'qish jarayoni deb ataladi. Biz o'qish jarayonini o'qish strategiyasi orqali anglab olishimiz mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, matndagi axborotni anglash uni o'qib tugatgandan keyin emas, o'qish davomida axborotni qabul qilish jarayonida yuz beradi, shuning uchun uning mazmunini tushunish vazifasi matnni o'qishdan oldin qo'yiladi. Metodik adabiyotlarda o'qib tushunishga o'rgatish bo'yicha mashqlar matnni o'qish jarayoniga nisbatan tasniflanadi.

Yapon tilini o'rganayotgan talabalar uchun matn bilan ishlash jarayoni eng katta qiyinchiliklardan biridir. Yapon tilini o'rganuvchilar o'qiyotgan yapon tilini qanday tushunishlarini tekshirish qiyin. Biroq o'quvchilar yapon tilini o'qiyotganda qanday tushunishlarini o'rganishning yagona yo'li matn ishlash jarayonida talab qiladigan usullardan foydalanishdir.

Yapon tilidagi matnni o'qiyotganda, so'z yoki jumalarning ma'nosini tushunmaslik, matnning umumiy mazmunni tushuna olmaslik kabi holatlar har bir til o'rganuvchi tajribasida uchraydi. Bu jarayonda e'tibor berish kerak bo'lgan quyidagi jihatlar mavjud:

1) Matndagi so'zlarning ma'nolari qanday izohlanadi va ular o'quvchining ona tilisiga qanday tarjima qilinadi?

2) Matnlarni o'qishda qanday noto'g'ri o'qishlar sodir bo'ladi?

3) O'quvchining bilimi va noto'g'ri o'qish o'rtasida bog'liqlik bormi?

4) Yaxshi o'qiydiganlar va noto'g'ri o'qiydiganlarning o'qish uslublarida farq bormi?

Matn bilan ishlashda to'sqinlik qilayotgan asosiy omillar nimalardan iborat:

1) iyerogliflarni tushunmaslik, o'qa olmaslik. Aslida bu yapon tili o'rganuvchi talaba uchun matnni o'qib tushunishga to'sqinlik qiluvchi asosiysiy muammolardan biri xisoblanadi. Iyerogliflarni o'rganish yaxlit bir jarayon bo'lib, u iyeroglifning shaklini, tovushi va ma'nosini bir vaqtda hotirada saqlab qolishni talab etadi. Iyerogliflarni o'rgatish tilini o'rgatishda muhim poydevor qo'yishning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Ko'pincha iyerogliflarni o'rgatishda deyarli butun dunyoda so'z yodlash va so'z boyligini oshirish bilan aralashgan holda o'rgatiladi. Alohida aynan iyerogliflar savodhonligiga qaratilgan kurslar kamdan kam, deyarli mavjud emas.

2) talabaning leksik boyligining kamligi –

3) obyekt va subyektni aniqlay olmaslik – yapon tilidagi jumla a matnlarda gap egasini aniqlasg qiyinchilik tug'diradi. Bu asosan yapon tilida Fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanmasligi bilan bog'liq. Gapni tushunishda birinchi muhim narsa – bu mavzu va predikat o'rtasidagi munosabatdir. Bu “nima (kim), nima qiladi (nimani, qanday)” qolipini aniqlash. Yapon tilida matnlarda ko'pincha obyekt va subyekt aniq berilmaslik holatlari uchraydi, shuning uchun “nima (kim)”ni aniqlashga qaratilgan mashqlar qilish kerak. Yapon matnlarida predikatlar ko'pincha gap oxirida yoki bitta oldingi gapda berilgan bo'ladi.

4) Uzun qo'shma gaplarni tushuna olmaslik – biroz uzun va murakkab tuzilishga ega bo'lgan jumla mavjud bo'lsa, jumlani batafsil tahlil qilish va ularni ma'nosini chiqarishda strukturasini o'zgartirib ko'rish, qismlarga bo'lish oraqi ma'nosini chiqarish ko'zda tutiladi. Katta va murakkab jumalarni o'qishda asosan peredikatni toppish va mavzuga mos kelishini aniqlash yoki gapni bosh bo'lak, bosh bo'lak va o'zgartiruvchi bo'laklarga ajratish, kompozitsiyani tushunishga e'tibor berish darkor.

5) Bog'lovchi so'zlar – Jumlani o'qiyotganda, bog'lovchi so'zlar old va orqa o'rtasidagi munosabatni tekshirish va kelajakdagi rivojlanishni bashorat qilish uchun foydalidir. Bog'lovchi so'zlardan ongli ravishda foydalansangiz, siz mantiqiy fikr yurita olasiz, mantiqiy ko'nikmalingizni tarbiyalaysiz. Biz uchta tez-tez ishlatiladigan bog'langan so'zlarga e'tibor qaratib, o'rganish nuqtalari bilan tanishamiz.

Bog'lovchi so'z birikmasi, ergash gap va iboralarni bog'lovchi so'zdir. Ulardan mustaqil qo'llanishi mumkin bo'lgan “しかし”、“また”、“そして”、“だから”、“それに”、kabi so'zlar “bog'lovchi” deyiladi. Bu bog'lovchilar boshlang'ich daraja yapo tili adabiyotlarida berilgan. Oldinga / teskari ulanish, parallel / kontrast, qo'shish (to'plash) / tushuntirish, tanlash / mavzuni o'zgartirish kabi bog'lovchilar mavjud.

1. Ketma-ket ulanish (oldingi tarkibning natijalari keyingi) - 「だから」「すると」「それで」「そこで」 kabi bog'lovchi so'zlarga mos keladi va o'zaro bog'liqlik old tomoni sabab, orqa tomoni esa natijadir. Bu ingliz tilidagi "so" ga mos keladi.

2. Teskari ulanish (oldingisiga qarama-qarshi bo'lgan tarkib) - 「しかし」「だが」「けれども」「でも」 kabi qo'shma so'zlardan keyin oldingisiga teskari so'zlar keladi. Teskari ulanish holatida, old tomondan keyingi tarkib men nazarda tutgan narsaga yaqinroq bo'ladi, shuning uchun unga e'tibor qarataylik.

3. Qo'shimcha (oldingi tarkibga qo'shimcha) – Oldingi mazmunga qo'shiladigan bog'lovchi so'z bo'lib, “「しかも」「さらに」「そのうえ」 kabi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, o'qishni tushunish ongda yuzaga keladi va uni bevosita tekshirib bo'lmaydi. Shu bilan birga, o'qishni tushunish jarayonini tekshirish usullariga ovoz chiqarib o'ylash usullari, anketa so'rovlari, vazifalarni bajarish, intervyu so'rovlari, o'qish tezligini o'lchash kabilarni qo'llash mumkin. Bular orasida o'quvchilarning o'qib tushunish bilan bog'liq muammolarini o'rganish lozim. Aslida yangi taklif qilinayotgan zamonaviy matn bilan ishlash usullari asosan qisqa vaqt ichida matnga berilgan savolgan javob topishga qaratilgani sabab, ular asosan vazifaga qarab bajariladi. Bunda matnni o'qigandan so'ng uni eslab qolish qobiliyati kamayishiga sabab bo'lmoqda. Aslida matn bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirishda boshlang'ich va o'rta darajalarda matnni “qayta hikoya qilish”, yozganda esa “yozma takrorlash” kabi usullar ham samara berishini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan xorijiy tillarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xorijiy tillarni o'zlashtirish esa o'quvchidan ma'lum darajadagi til malakasini talab qiladi. Lingvistik malakaning umumiy bilish, o'zlashtirish qobiliyati bilan chambarchas bog'liqligi jahon ilm-fan tadqiqotlarida ham ko'p marotaba o'z tasdig'ini topgan. Kundan-kunga rivojlanib borayotgan dunyo talablaridan biri bo'lgan chet tilini bilish, uni o'rganish ham bevosita o'quvchida o'qish va yozish ko'nikmalarining yaxshi rivojlanganiga bog'liq. Oliy ta'lim bugungi kunda bitiruvchining kasbiy faoliyati sohasida zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga o'z ichiga olgan kompetensiyaga asoslangan yondashuvga asoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам: М. 2009.

2. Abdunabiev S. B. THE LEXICOLOGICAL AND SEMANTIC CHARACTERISTICS OF THE WORDS ENTERED INTO UZBEK FROM ARABIC //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES". – 2023. – T. 1. – №. 5. – С. 68-70.

3. Linguistic and cultural features of concept time in sacred texts: essemthallassumptions, best practices and challenges. LangLit An International Peer-Reviewed Open Access Journal / Latur (MS) India, 2018.

4. Материалы стажировки международного фонда Японии в онлайн режиме Обучение методике работы с текстом (Teaching Reading Comprehension), Japan foundation, 2021.
5. Marguba S. STRATEGIC ANALYSIS OF E-COMMERCE IN UZBEKISTAN //American Journal of Business Management, Economics and Banking. – 2022. – Т. 7. – С. 126-129.
6. Nuttall, C. (1982). Teaching reading skills in a foreign language. London: Heinemann. Purposes. A multi-disciplinary approach. Cambridge University Press.1998.
7. Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам. Продвинутый курс. М., 2008.
8. Суворова М. А. Лингвокультурологический подход в обучении иностранным языкам студентов старших курсов языковых вузов: автореф. дис. ... канд. пед. наук. Улан-Удэ, 2000
9. Carrell, P. L. 1991. Readers and reading strategies. PALM, 6 (1): 13–21.
10. Халилова А. Адабиёт-япон журналистикасида маърифат ҳамда рекреациянинг асоси //Общество и инновации. – 2023. – Т. 4. – №. 3/S. – С. 160-168.